Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 372.0:370
ORCID: 0000-0002-1319-2908

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MULOQOT QILISHGA O‘RGATISHNING AHAMIYATI

Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna
Termiz davlat pedagogika instituti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: muhabbatberdiyeva8080@gmail.com

Annotatsiya: Bolalarni nutqiy muhitga mos ravishda muloqot qilishga tayyorlashda kognitiv omillarni inobatga olishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilayotganini hisobga olgan holda maqolada maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartida bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish maqsadida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, innovatsion ta'lim shakllari hamda texnologiyalarini amaliyotga joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish maqsad qilingan. Maqolaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda bolalarni samarali muloqotga o‘rgatish orqali ularni maktab ta'limiga tayyorlashning didaktik ta'minoti hamda axborotli muhitini takomillashtirishni o‘rganishda turli ilmiy va pedagogik manbalar qiyosiy tahlil qilingan, xulosalar chiqarishda foydalanilgan. Mazkur tahlillar asosida maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni samarali muloqot texnologiyasini rivojlantirish muammolari ochib berilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning muloqoti va faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini turli faoliyatlar jarayoni bolaning turli muloqot shakllarini o‘zlashtirishiga zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: muloqot, ta'lim, tarbiya, faoliyat, nutq, maktabgacha yoshdagi bolalar, fikrlash jarayoni, intellektual rivojlantirish, tasavvur.

ВАЖНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НАВЫКАМ ОБЩЕНИЯ

Аннотация: При подготовке детей к общению необходимо учитывать особенности их речевой среды, что способствует эффективному развитию коммуникативных навыков. Важно совершенствовать педагогические методы, которые будут учитывать познавательные особенности детей и их возрастные характеристики.

В нашей стране в настоящее время активно проводится реформа системы дошкольного образования. В данной статье рассматриваются способы организации учебно-воспитательного процесса в соответствии с современными требованиями, а также внедрение инновационных форм и технологий обучения, направленных на всестороннее развитие детей.

Целью статьи является исследование особенностей организации учебно-воспитательного процесса в рамках Государственного стандарта дошкольного образования и воспитания. Мы также анализируем, как дидактическое обеспечение может способствовать подготовке детей к школьному обучению и эффективному общению.

В процессе исследования был проведён сравнительный анализ различных научно-педагогических источников, на основе которого были сделаны выводы о существующих проблемах в развитии технологий эффективного общения у детей дошкольного возраста.

Развитие речи у дошкольников тесно связано с их общением и деятельностью. Разнообразная и целенаправленная деятельность в дошкольных образовательных учреждениях создаёт прочную основу для освоения детьми различных форм общения.

Ключевые слова: общение, обучение, воспитание, деятельность, речь, дошкольники, мыслительный процесс, интеллектуальное развитие, воображение.

THE IMPORTANCE OF TEACHING COMMUNICATION TO PRESCHOOLERS

Annotation: When preparing children for communication, it is essential to consider the specific features of their linguistic environment. Pedagogical methods should be refined to better incorporate cognitive factors. Efforts are underway in our country to reform the preschool education system. This article explores how to organize the educational process in line with modern standards and integrate innovative teaching methods and technologies. Such measures will support the comprehensive development of children. The purpose of this article is to examine the characteristics of organizing the educational process under the State Standard for Preschool Education and Upbringing. Additionally, we will explore how didactic resources can facilitate children's preparation for school education and effective communication.

During the study, we conducted a comparative analysis of various scientific and pedagogical resources and reached conclusions. Based on this analysis, we identified challenges associated with developing effective communication skills in preschool-aged children.

The development of preschoolers' speech is closely interconnected with their communication and activities. A variety of activities in preschool educational institutions form the foundation for acquiring different forms of communication.

Key words: communication, learning, education, activity, speech, preschoolers, thought process, intellectual development, imagination.

KIRISH. Bugungi kunda Respublikamizdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat o`quv dasturini amalga oshirish borasida, bolalarni maktabga tayyorlash uchun nutq o'stirish mashg'ulotlarini samarali tashkil etish zaruriy masaladir. Ushbu zaruriy masalani ijobiy hal etish uchun intellektual salohiyatga ega bo'lgan bolalarni rivojlantirish, shuningdek, mashg'ulotda tarbiyachi bilan bolalar o'zaro bir-birini tushuna olish, obyekt bilan subyekt o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri tashkil etish kabilar zamonaviy o'qitishning asosiy talablaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 8-moddasida:

"Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etnik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir - yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi"[1] – deyilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022 – 2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish va maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish masalasi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" – deb nomlanuvchi to'rtinchi ustuvor yo'nalishining 39-maqsadida keltirib o'tildi[2].

Buning uchun joriy yilda maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining malakasini oshirish shakl va metodikalarini xalqaro tajriba asosida qayta ko'rib chiqish, hududlarda davlat hamda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbari, pedagog kadrlarining kredit-modul tizimiga asoslangan uzluksiz malaka oshirish tizimini tatbiq etish va maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruv kadrlari zaxirasini maqsadli o'qitish tizimini yo'lga qo'yish kabi vazifalarning 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturning 202-bandida[1] keltirib o'tilganini bugungi kundagi maktabgacha ta'limga berilayotgan katta g'amxo'rlik namunasi deyish mumkin. Shu bilan birga ushbu qarorlar maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashuviga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[3] qarori yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat bo'lib, unda tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirish uchun ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni to'liq yuzaga chiqarishni yangi darajaga ko'tarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da 3 − 6 (7) yoshli bolalarni bola faoliyatining yetakchi turlari sifatida muloqot, o'yinlar, mashg'ulotlar ekanligiga urg'u berilgan.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish (jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalariga tayyorgarlik, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish) sohalari mavjud bo'lib, har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan) iboratdir[3]. Ushbu talablardan kelib chiqib, aytish mumkinki, muloqotga kirishishda mavjud texnologiyalarni rivojlantirish bugungi kundagi zamonaviy texnologik jarayon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Kishilar faoliyatida bir-birlariga murojaat qilish ehtiyoji zaruratdan paydo bo'ladi. Muloqot tushunchasi inson

faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo‘lganligi uchun unga turli jihatdan yondashgan holda ta’riflar berish mumkin. Har bir soha insonlar o‘rtasida yuz beradigan munosabatlarning mazkur turini fanning qonuniyati va predmeti nuqtai nazardan tadqiq etadi va izohlashga harakat qiladi. Biz quyida muloqot tushunchasining turli fanlardagi izohlarini tahlil etib chiqamiz. Muloqotning boshqa turli siyosiy, ijtimoiy, diniy va falsafiy muloqot kabi ko‘rinishlari ham mavjud bo‘lib, biz tadqiqotimiz davomida e’tiborni asosan muloqotning pedagogik psixologiya bilan bog‘liq jihatlarini tahlil etishga qaratdik.

Dastavval, muloqotning psixologiyadagi xususiyatlarini bayon etsak. *Muloqot psixologiyasi* – odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlashni o‘z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan muloqotda bo‘lamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz biror shaxs bilan muloqotga kirishishdan avval unga nisbatan turli munosabatda bo‘lishimiz mumkin. Demak, muloqot jarayoni kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o‘zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o‘zaro birgalikda) idrok etish orqali amalga oshiriladi. Bizning yuksak ma’naviy ehtiyojlarimizdan biri – bu muloqotga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligidir.

Muloqotga bo‘lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz zarur sanaladi. Kimlar bilandir bo‘lgan muloqotdan qoniqish hissini hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaymiz. Psixologik nuqtai nazardan muloqotga ta’rif berar ekanmiz, ko‘plab xorijiy tadqiqotchi olimlar turlicha izoh berib o‘tganligini guvohi bo‘lamiz. Xususan, *muloqot* shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir (polshalik Melibruda), *muloqot* ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasidagi axborot ayriboshlash, o‘zaro ta’sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon (A.Petrovskiy), *muloqot* ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasidagi affektiv boshlovchi harakatida va bilish bo‘yicha ma’lumot almashinuvidan iborat bo‘lgan o‘zaro ta’sir etishdir (M.G.Davletshin). Bundan tashqari muloqot psixologiyasi pedagogik psixologiya bilan ham uzviy bog‘liq. Pedagogik muloqotda ta’lim psixologiyasi, tarbiyaning psixologik asoslari, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari, o‘qituvchi psixologiyasi, maktablarda ta’lim-tarbiya jarayonlarini boshqarish muhim o‘rinni egallaydi.

Pedagogik muloqot – bu muloqot turlaridan biri bo‘lib, pedagogik faoliyatda muhim o‘rin tutadi. Hattoki, bu madaniyatning ajralmas tarkibiga aylanib ulgurdi. Muloqot madaniyati tushunchasiga ilmiy yondashuv 1929-yilda Pragada bo‘lib o‘tgan ilmiy izlanishlarda ta’kidlangan bo‘lsada, rivojlangan mamlakatlar: AQSh, Fransiya, Germaniya, Angliya va Yaponiya kabi davlatlarda alohida e’tibor qaratilgan. Ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, L. S. Vigoskiy, A. N. Leontev, A. R. Luriya, A. V. Zaporojes va M. I. Lisinalarning

tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bolaning dastlabki ehtiyojlaridan biri bu uning muloqotga bo'lgan ehtiyojidir. Tadqiqotchi T. I. Gresik fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalarga muloqotning dialogik shakli ijtimoiy jihatdan muhim[4; 54-56-b.]. Dialog shaxs rivojlanishining tabiiy muhiti bo'lib hisoblanadi. Dialogik muloqotning yetishmasligi yoki umuman yo'qligi shaxs rivojlanishida turli xil buzilishlarga, atrofdagi insonlar bilan birga harakat qilishda muammolarning ko'payishiga, o'zgaruvchan hayotiy holatlarda moslashishda jiddiy murakkabliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Tadqiqotchilarning qarashlarini umumlashtirib, F. A. Soxin, nutqiy muloqotsiz bolaning to'laqonli rivojlanishi mumkin emas, degan fikrga keladi[5; 21-24-b.].

Yuqorida keltirilgan ta'riflarga muvofiq muloqot tushunchasiga umumiy tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin: *muloqot* – ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi nafaqat axborot almashish, balki uni shakllantirish, aniqlashtirish va rivojlantirish bilan bog'liq o'zaro ta'sir etish jarayoni hisoblanadi.

Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar bolalarda nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish (F. A. Soxin[4], A. V. Zaxarova[6; 11-14-b.] va boshq.) ona tilidagi so'z hosil qilish tizimini aniqlash bilan birga grammatik xatoliklarni tadqiq etish, tuzatish va grammatik umumlashmalarni shakllantirishga e'tiborni qaratish zarurligini isbotlash imkonini berdi.

Bolalar nutqini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik sa'y-harakatlarni uyushtirish kalitidir[90]. Nutqiy faoliyat nazariyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni tadqiq etish – maktabgacha ta'limda uning nazariyasi, amaliyoti uchun ahamiyatli hisoblanadi. Nazariy va amaliy ishlar shundan dalolat bermoqdaki, nutqiy faoliyat motivatsiyasini boyitish bolalar nutqini rivojlantirish borasidagi ishlarning samaradorligini.

Bolalarning lug'at boyligini oshirish yo'lida atrof-muhitni o'rganish samarali natija beradi. Tajribali pedagoglarimiz tomonidan bolalarning lug'at boyligini oshirish yo'lida har xil usul va metodlardan foydalanilmoqda. Bizningcha, bola tafakkurini yanada rivojlantirish uchun mumtoz adabiyotimizning ayrim jihatlarini o'rgatish ham kutilgan natijani beradi. Ya'ni, mumtoz adabiyotimizning noyob durdonalaridan g'azal va ruboiylarni yod olishni dasturga kiritish so'zga hurmat bilan qarash ko'nikmalarini shakllantiribgina qolmay, ularning lug'at boyligining ortishiga ham yordam beradi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqi ustida ishlash jarayonida MTTlarda doimiy tarzda mumtoz adabiyotimiz namunalariga murojaat qilishni taklif qilamiz. MTTlarda milliy pedagogik elementlardan hisoblangan nutq o'stiruvchi uslublar bilan bir qatorda, g'azal va ruboiylarni ham kiritish samarali natija berishini alohida ta'kidlash zarur. Shu bilan birga, mumtoz adabiyotimizning har bir janrida o'ziga xoslik mavjudki, ushbu o'ziga xoslikdan to'g'ri hamda unumli foydalanish lozim bo'ladi. Og'zaki nutq – bu bolaning maktabga olib boradigan eng muhim ijtimoiy-bilim qobiliyatidir. Shu sababli ham bolalarni maktabga tayyorlashda og'zaki nutqlarini boyitish oliy maqsadimiz bo'lmog'i darkor.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Kundalik hayotda tinglashga o'rganish nafaqat boshqalar bilan munosabatlarni yaxshilashi, balki ko'plab yangi va qiziqarli narsalarni o'rganishda yordam berishi

mumkin. Shuni aytish joizki, nafaqat bolalar balki, kattalar ham tinglashdan ko‘ra ko‘proq gapirishni ma’qul ko‘radilar. Tinglash madaniyati ba’zi kasblarning samaradorligini ham unutmaslik zarur. Aynan shuning uchun ham bolalarni maktabgacha yoshidanoq muloqotga o‘rgatish ahamiyatli masalalardandir.

Tadqiqotchi A. Flerina “Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish muammosini tor darajada hal etish”ning xavfliligi haqida ogohlantirib, maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos o‘qitish usulini ta’kidlagan: “Bolalar bevosita hayot bilan muloqotga kirishish yo‘li bilan, tengdoshlari va kattalar misolida hamda mashg‘ulotlar va maxsus mashg‘ulotlarda tarbiyachining ko‘rsatib o‘tishi orqali o‘qib o‘rganadilar”[7; 86-b.]. Shu o‘rinda tarbiyachilarning nutqlari ham ravon, tiniq, toza bo‘lishi shart. Bolalarni ravon nutqqa o‘rgatishda nafaqat oddiy jumlali matnlar yoki kichkina she’rlar, balki kattalarga xos bo‘lgan g‘azal matnidan ham foydalanish kutilgan natijani beradi. G‘azal o‘qib berishda bolalarning diqqatini jalb qilish birinchi vazifalardan sanaladi. Jumladan, namanganlik So‘fizodaning adabiyotga ko‘ngil qo‘yishida g‘azalni did bilan o‘quvchi ustozining ta’siri kuchli bo‘lgan. Har qanday tanish bo‘lmagan, ayni damda qiyin bo‘lgan she’rni juda chiroyli ohangga solib o‘qishlik har qanday befarq odamni ham o‘ziga jalb qilmay qolmaydi. Diqqat bilan tinglash, tushunish va tahlil qilish, munosabat bildirish orqali muloqotga o‘rgatish tizimi maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda rivojlangan texnika asri bolalarning ham dunyoqarashiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Har bir uyda televizor, kompyuter va cheksiz internet imkoniyatlarining mavjudligi endi kitob o‘qishga vaqti bo‘lmagan ota-onalarni ayblashga asos bo‘lolmaydi. Bolalar nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, fikrlashini o‘stirish hamda muloqotga o‘rgatish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus telekanal, ijtimoiy tarmoqlarda maxsus kanallar kabi imkoniyatlar mavjud. Biroq bulardan o‘rinli foydalanish masalasi muammo hisoblanadi.

1937-yilda tadqiqotchi Ye. I. Tixiyevaning “Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirish” nomli kitobida bolalar bog‘chasida bolalarga ona tilini o‘qitishga doir ishlarni tashkil qilish masalalariga alohida e’tibor qaratganligini aytish mumkin. 1939-yilda esa Gersen nomidagi pedagogika institutining maktabgacha tarbiya bo‘limi uchun “Maktabgacha yoshda nutqni rivojlantirish” kursi dasturi chop etildi. “Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirish” kitobida bayon etilgan amaliy tavsiyalar bolalar bog‘chalarida hozirgi kungacha qo‘llanib kelinmoqda. Yevgeniya Aleksandrovna Flerina (1889-1952) maktabgacha tarbiya sohasidagi birinchi pedagogika fanlari doktori bo‘lib, u nutqni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shgan. 50-60-yillarda nutqni rivojlantirish metodikasida yangi bo‘lim – grammatik to‘g‘ri nutqni shakllantirishga katta e’tibor berila boshlandi. Ushbu masalani yoritishga professor A. N. Gvozdev ulkan hissa qo‘shdi, u o‘zining “Bolalar nutqini o‘rganish masalalari” nomli kitobida[7; 45-b.] bolalarning ilk yoshdan boshlab grammatik tuzilishni o‘zlashtirib olishlarining qonuniyatlarini ochib bergan.

Ma’lumki, fikrlash haqiqat narsalari va hodisalarini ularning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarida aks ettiradi. U hissiy bilimlarning ma’lumotlariga asoslanadi, lekin undan tashqariga chiqib, hodisalarning mohiyatiga kirib boradi,

idrokda bevosita berilmagan xususiyatlarni va munosabatlarni anglaydi. Fikrlash nutq bilan uzviy bog‘liqdir. So‘z obyektning xususiyatini yoki xususiyatini nomlashga yordam beradi. Fikrlash jarayoni nutqda shakllanadi. Fikrlash jarayoni muammoli vaziyatni anglashdan, savolni shakllantirishdan boshlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish uchun – fikrlashning shunday mantiqiy usullari muhimki, ular yordamida bolalar matematik tasavvurlarga ega bo‘ladi. Bu usullar analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va klassifikatsiyalashdir. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro muloqotidagi eng elementar jihat bu – bir-birini tushunishdir. Erta tongdan tarbiyachining bolalarni kutib olishidagi munosabati va bolalarning kayfiyatidan ularning kun davomidagi birinchi muloqoti baholanadi. Tarbiyachining ochiq yuz bilan kutib olishi, bolalarning salom berib kirib kelishi ijobiy muloqotni ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash asosida intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligi, maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash asosida intellektual rivojlantirishning psixologik-didaktik jihatlari tadqiqot ishimizda tahlil qilingan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan Davlat standartlari – maktabgacha ta’limda bola shaxsini barkamol qilib tarbiyalash yo‘lida ularni maktabga tayyorlashni ko‘zda tutadi. Bunda xalqimizning tarixiy, milliy, madaniy va umumbashariy qadriyatlari asosida ularda bilim, o‘qishga ehtiyojni shakllantirishni vazifa qilib qo‘yadi.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olishga tayyorlashda, unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish zarur. Nutqni rivojlantirish, o‘qish va savodga tayyorlash – maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida birlamchi vazifalardan sanaladi. Bola nutqining taraqqiyoti uning atrofidagi katta odamlar tilining ta’siri ostida rivojlanib boradi.

XULOSA. Nutqni rivojlantirish – bolaning ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirishiga doir murakkab va ko‘p omilli jarayondir. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishda, avvalo, tinglash, tinglash orqali fikrlash, tinglash bilan fikrlash orqali muloqotga o‘rgatish integratsiyasini to‘g‘ri qo‘llash, bizningcha qiyinchiliksiz maqsadga yetishga yordam beradi. Tushunib tinglashni o‘rgatsak, bolalar fikrlay boshlaydi. Fikrlagan bola og‘zaki nutqda ham qiynalmaydi. Aksincha, muloqotda faollik ko‘rsatadi.

Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlar maktabgacha tarbiya muassasasidagi ta’lim-tarbiya ishlari ichida alohida o‘rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqotga o‘rgatish texnologiyalarini takomillashtirish orqali atrof-olamni anglash malakalarini shakllantirish tizimli pedagogik ta’sir hamda metodik yondashuvlarga asoslanadi. Bolalarni nutqiy muloqotga tayyorlashda maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila, maktab hamda ijtimoiy institutlar integrativ faoliyati taqozo etiladi. Bu jarayonning pedagogik modelini modernizatsiyalashda bolalarda rivojlanishi talab etiluvchi soha kompetensiyalarini integrativ rivojlanishini ta’minlovchi samarali texnologiyalarni tanlash, joriy etish talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 23.09.2020. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

2. “2022 – 2026 -yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.

3. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-son Qarori. 21.12.2019 // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son.

4. Грецик Т. Взаимодействие детского сада и семьи по развитию речи // Дошкольное воспитание. – 2000. - №6. – с. 54-56.

5. Сохин Ф. А. Психолого-педагогические проблемы развития речи дошкольников // Вопросы психологии. – 1989. - №3. – с. 21-24.

6. Захарова А. В. Деятелностный подход к изучению самоотсенки // Психодиагностика и школа: Тезисы симпозиума. – Таллин, 1980, –С. 11-14.

7. Berdiyeva M. Maktabgacha pedagogika fanidan ma’ruzalar matni. – T.: Termiz davlat universiteti, 2018. – B. 152.

8. Berdiyeva M. M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash asosida intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish: Ped. f. b. f. dok. (PhD) diss. avtoref. – T., 2020. –B 46.